

**O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNI
IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMI TRANSFORMATSIYASI**
**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 09.00.04-Ijtimoiy
falsafa yo'nalishi bo'yicha tayanch doktorant Ismailov Shuxrat**
Atamurodovich
E-mail: shuxratismailov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'z o'rinlarini egallashlaridagi muammolar va ularning yechimiga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilishning huquqiy asoslari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya", "Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol", Imkoniyati cheklangan shaxslar, huquqiy asoslar.

СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ИНВАЛИДОВ В УЗБЕКИСТАН
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
09.00.04-Докторант социальной философии Исмаилов Шухрат
Атамуродович
E-mail: shukhratismailov@gmail.com

Аннотация: В данной статье содержится информация о проблемах и решениях инвалидов, занимающих свое место в обществе. Приведена информация о правовой основе защиты лиц с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: «Конвенция о правах инвалидов», «Факультативный протокол к Конвенции о правах инвалидов», инвалиды, правовые основы.

**SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION OF DISABLED PERSONS IN
UZBEKISTAN**
**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. 09.00.04-
Doctoral student of social philosophy Ismailov Shukhrat Atamurodovich**
E-mail: shukhratismailov@gmail.com

Annotation: This article covers the problems of individuals with disabilities and disabilities taking their places in society and their solutions. Information is provided on the legal framework for the protection of persons with disabilities.

Keywords: "Convention on the rights of persons with disabilities",

"Optional Protocol to the Convention on the rights of Persons with disabilities", persons with disabilities, legal grounds.

Kirish

Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma'naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Aksariyat hollarda ular kamsitish va "qo'li kaltalik"dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyat davlat zimmasiga tushadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoxud boshqa e'tiqodlaridan, milliy, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yoxud tabaqaviy va boshqa sharoitidan qat'i nazar, barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Bu nogironlarga ham bevosita va to'la taalluqlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro tashabbusi doirasida, O'zbekiston Parlamenti tomonidan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya ratifikatsiya qilindi. [1].

Mazkur Konvensiya - nogironligi bo'lgan shaxslarning tenglik asosida barcha inson huquqlarini to'liq amalga oshirishlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. U mavjud sharoitlardan foydalanish imkoniyati, shaxsiy harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, abilitatsiya va reabilitatsiya, siyosiy hayotda ishtirok etish, shuningdek tenglik va kamsitmaslik kabi bir qator muhim masalalarni qamrab oladi.

Bir so'z bilan aytganda, endilikda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikning ham milliy, ham xalqaro asoslari mavjud. Galdagi dolzarb masala – ushbu normalarda belgilangan vazifalarning samarali ijro etilishidan iborat. [2].

Ularda nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlarini rag'batlantirish va himoya qilish, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari belgilab qo'yilgan.

Ushbu Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalani, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan va ularni amalga

oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan. Bunda, ayniqsa, nogiron ayollar, bolalar va keksalar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Imkoniyati cheklangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning asosiy katta bir qismini jismoniy imkoniyati cheklanganlar tashkil etadi desak ham xatolik bo'lmaydi.

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, jismoniy tiklanishlari yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari hamda tibbiy muolajalar olib borishlari uchun keng-ko'lamdagi imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlarning haq-huquqlari qonun xujjatlari bilan mustahkamlab qo'yigan va himoya qilinmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatda o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy hayot kamchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olishmaydilar. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan ularni qo'llab quvvatlash hamda ijtimoiy himoya qilish maqsadida bir qancha qarorlar imzolandi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o'rganildi.

Mazkur farmonni samarali amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 – 2021 - yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

Birinchi. Aholi bilan o'tkazilgan ochiq va to'g'ridan to'g'ri muloqot yakunlari hamda manfaatdor vazirlik va idoralarning fikr-mulohazalarini inobatga olib:

O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish;

BMTning “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik bo'yicha amaliy choralar ko'rish haqidagi takliflar qabul qilindi.

Ikkinchi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Uchunchi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagilarni

ta'minlash choralari ko'rildi.

- nogironligi bo'lgan shaxslarga, jumladan katta yoshdagilarning savodxonligini oshirish maqsadida viloyatlar, tumanlar markazlarida umumta'lim maktablari negizida imo-ishora tili va Brayl alifbosini o'rgatish bo'yicha ushbu sohadagi mutaxassislarni jalb qilgan holda maxsus kurslarni tashkil etilish;

- ko'rish a'zolari zaif shaxslarga ovoz eshittirish imkonini yaratish maqsadida turli xildagi dasturiy ta'minotlarga davlat tilida maxsus dasturlar, shu jumladan kompyuter operatsion tizimlari yaratish, ularni ushbu shaxslar o'qiyotgan va ishlayotgan ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda keyinchalik erkin tarqatish, o'rnatish, shuningdek, mazkur dasturlarni yaratish uchun salohiyatli homiyilar topish;

To'rtinchi. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratish tartibi joriy etish;

Beshinchi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun - bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi o'rnatildi.

Oltinchi. Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda boshqa vakolatli idoralarning faoliyatini quyidagilarga qaratilgan takliflar tayyorlash.

- sog'liqni saqlash vazirligi huzurida keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy muhofaza qilishga, shu jumladan ularni to'liq va kompleks kuzatgan holda ko'rsatilayotgan xizmatlarni

- muvofiqlashtirishga mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan idora tashkil etish; ixtisoslashtirilgan idora negizida nogironlikni belgilashni to'liq qamrab oluvchi yagona tizimni tashkil etish;

- tegishli hujjatlarni rasmiylashtirgan shaxslarning nogironlikka muvofiqligini tekshirish tartibini joriy etish;

- amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga javob bermaydigan samarasiz tuzilmalarni tugatib, tegishli shtat birliklarini yangi tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan idoraga o'tkazish.

Sakkizinchi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ahvolini yaxshilash, tibbiy-ijtimoiy yordam va rehabilitatsiya sifatini oshirish, protez-ortopediya buyumlari va

texnik reabilitatsiya vositalari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab- quvvatlash jamg'armasi tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Jamg'armani, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini buzganlik uchun qo'llaniladigan jarimalardan tushgan mablag'larning bir qismi hisobiga shakllantirishni nazarda tutgan holda, uning faoliyatini tashkil etish bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqish.

To'qqizinchi. 2018-yil 1-iyundan boshlab, nogironligi bo'lgan shaxslar, tayinlangan pul to'lovlarining turlari va miqdori, ajratilgan texnik reabilitatsiya vositalari, protez-ortopediya buyumlari va dori vositalari, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar va berilgan imtiyozlar to'g'risidagi kompleks ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, shuningdek, mazkur sohadagi ishlarning holati haqidagi ma'lumotlarni tezkor olish, davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirish, budjet mablag'lari maqsadsiz sarflanishi va suiiste'molchilik holatlarining oldini olish imkonini beruvchi nogironligi bo'lgan shaxslarning yagona elektron reyestridan foydalanish amaliyotga tatbiq etish. Ushbu farmonni joriy qilinishi barcha Respublikamizdagi imkoniyati cheklangan shaxslarga bo'lgan e'tiborni yorqin dalilidir. [3].

Natijalar. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yilning 15-oktabr kuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" O'RQ-641-sonli qonuni imzolangan. Ushbu qonunda Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ularning huquqlarini kafolatlashga oid qator masalalar belgilandi.

Ushbu Qonunda imkoniyati cheklanganlarni himoya qilishning huquqiy asoslari xaqida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi

Uchunchi modda. Asosiy tushunchalar

- Nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish - maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy sohada yoki boshqa sohada o'zgalar bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquq va erkinliklarini e'tirof etishni yoki ro'yobga chiqarishni inkor qilishdan iborat bo'lgan, nogironlik sababli har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash;

- Nogironligi bo'lgan shaxs - ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs;

To'rtinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari

- Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;

- nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;

- insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;

- nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;

- obyektlar va xizmatlarning qulayligi;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

Beshinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish prinsipi.[4].

Muhokama. Nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanadi.

Oltinchi modda. Nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik prinsipi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashga hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar boshqa fuqarolarga nisbatan kamsituvchi choralar hisoblanmaydi.

Yettinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi prinsipi.[5].

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.

O'n birinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

- nogironligi bo'lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;
- nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

O'n ikkinchi modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi vakolatlari

- nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Oltinchi bob. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

O'ttiz sakkizinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi.[6].

Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega. Ta'lim tashkilotlari davlat organlari bilan birgalikda nogironligi bo'lgan bolalarning maktabgacha, maktabdan tashqari va umumiy o'rta ta'lim olishini, shuningdek o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limi olishini ta'minlaydi.

Davlat nogironligi bo'lgan bolalarning bepul umumiy o'rta, maktabdan tashqari, o'rta maxsus va professional ta'lim olishini kafolatlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni to'lovdan ozod qilgan holda yoki imtiyozli shartlar asosida maxsus o'quv qo'llanmalari va adabiyotlar, shuningdek surdotarjimonlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim berish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish turli shakllarda, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda, eksternat shaklida, shuningdek masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, umumiy tipdagi ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, uyda, maxsus guruhlarda, sinflarda va yakka tartibdagi o'quv rejalari bo'yicha o'qitish yo'li bilan amalga oshiriladi.[7].

Qirqinchi modda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy o'rta, o'rta

maxsus, professional, maktabdan tashqari, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limi, professional ta'limi ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, zaruriyat bo'lganda esa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta'limi bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, "Barkamol avlod" bolalar maktabida, bolalar-o'smirlar sport maktablarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi.[8].

Professional ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlarga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turli tipdagi va xildagi ixtisoslashtirilgan professional ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ularda o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi.[9].

2018 yilda qo'shimcha 2% kvotalar tufayli nogironlikning I va II guruhiga mansub bo'lgan shaxslar O'zbekistonda oliy ta'lim olish uchun o'z imkoniyatlaridan foydalandilar. Bu oliy ta'limga nogironligi bor shaxslarni jalb etish bo'yicha oldinga qo'yilgan ilk katta qadam.

Ushbu o'quv yilidan boshlab I va II guruh nogironligi bor shaxslarga abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizli qo'shimcha kvotasi kiritildi. Kirish imtihonlarida nogironligi bor abituriyentlar uchun o'tish ballari 56,7 ballgacha (maksimal ballning 30 foizi - 189 ball) kamaytirildi va tegishli ballni qo'lga kiritganlar davlat grantlari asosida byudjet joylariga o'qishga qabul qilindilar.[10].

Yana bir imkoniyatlardan biri bu prezidentimizning 2022 yil 18 iyuldagi PQ-323-sonli qaroriga ko'ra, to'lov kontrakda o'qiyotgan xotin-qizlarga 2022-2023 o'quv yilidan imtiyozli foizsiz ta'lim krediti berilishi, kam ta'minlangan oilalar farzandlari yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarga to'lov kontrak puli qaytarish shartisiz to'lab berilishi, magistratura bosqichida o'qiyotganlarni esa to'lov-kontrakt pullari davlat tomonidan to'lanishi albatta davlatimiz tomonidan yoshlar (xotin-qizlar) ga bo'lgan yuksak e'tiborni guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa. BMTga a'zo davlatlar dastlabki milliy ma'ruzani Konvensiya ratifikatsiya qilinganidan so'ng 2 yil ichida, keyinchalik har 4 yilda bir marta taqdim etishlari belgilangan. Demak, jahon hamjamiyatiga bu borada dastlabki hisobotni taqdim etishimizga vaqt yetarli. Agar shu muddat mobaynida barchamiz birlashgan holda harakat qilsak, nafaqat poytaxt, balki respublika bo'ylab

nogironlarning munosib yashashi, o'qishi, mehnat qilishi, davolanishi va dam olishi uchun moslashtirilgan sharoitlarni yaratilishiga erisha olamiz. Demak, shu zaminda yashayotgan har bir inson, hattoki jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa ham hayotidan rozi bo'lishi uchun harakat qilsak, shu sa'iy-harakatlarimiz natijasidan butun jamiyatimiz bahramand bo'ladi.

Bu ona zaminda inson qadri yuksaklarga ko'tarilib ulug'lanar ekan, bizning diyorimizda yashayotgan imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan insonlarni qo'llab-quvvatlash ularga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish bizning oliy burchlarimizdan biridir. Ularning qalblaridagi orzu istaklarini ro'yobga chiqarib, vatanimiz bayrog'ini Osiyo, Jaxon, Paralimpiya sport musobaqalarida baland ko'tarishlari uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solsak, albatta bu zaminda ulg'aygan xar qasi o'g'il-qiz imkoniyati cheklangan bo'lsada o'zining xaqiqiy jasorati va matonatini ko'rsatishiga aminman. Shundek ekan biz har birimiz avvalo ularga mehr ulashmog'imiz, ulardagi noyob iqtidorlarni ra'yobga chiqarishlariga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib, qo'limizdan kelgancha yordam qilmog'imiz lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Farmoni. Toshkent shahri-2020 yil 15- oktyabr, O'RQ-641-son.

2. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent. 2017 yil 1-dekabr, PF-5270-son.

3. Nargiza Shayusupova Turg'unovna, Nurali Arabov Uralovich, Dilmurod Nasimov Abdullaevich. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. (O'quv qo'llanma). "Iqtisodiyot". 308 bet.

4. Абдурахмонов К-Х-, Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. Ахолини ижтимоий муҳофаза қилиш. Укув кулланма - Тошкент, 2006.142-В

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr.

7. Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

8. Горовик А.А., & Турсунов Х.Х. (2020). Применение средств

визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

9. Tursunov H.H., & Hoshimov U.S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalar. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

10. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). Hozirgi kunning dolzarb imkoniyatlari. Jaws va nvda dasturlari. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.